



## XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 13-aprel

VI-73-45-13-194-K/24

Ellikqal'a tumani

### **Ellikqal'a tumanida xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan 2024-yil 1-choragida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida tuman hokimi o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i A.A.Yuldashevaning hisoboti**

Ellikqal'a tumanida xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan 2024-yil 1-choragida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida tuman hokimi o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i A.A.Yuldashevaning hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Ellikqal'a tumanida xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan 2024-yil 1-choragida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida tuman hokimi o‘rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i A.A.Yuldashevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (A.A.Yuldasheva)ga;

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minalash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

- oila va xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish; xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

- xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha manzilli chora tadbirlarni sifatli va samarali amalga oshirish;

xotin-qizlarning bandligini ta’minalash, tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanishi uchun ko‘maklashish, ularni tadbirkorlikka jalb qilish;

uy-joylarini ta’mirlashga ko‘maklashish;

tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik ko‘maklashish bo‘limi A.T.Aminov bilan birgalikda;

- “Ayollar daftari”ga kiritilgan ishsiz xotin qizlarning bandligini ta’minlash;

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish hamda ularni hududlardagi bo‘sh ish o‘rinlari, tadbirkorlikka jalb qilish;

- mahallalarda xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, tomorqadan samarali foydalanish uchun subsidiyalar ajratish tartib - taomillari bo‘yicha tushuntirish tadbirlarini tashkillashtirsin.

4.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.X.Davletov zimmasiga yuklatilsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o‘rinbosari



BAYNAZAROV ANVAR  
KALANDAROVICH